“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirishda yuridik xizmatning o‘rni

Xayriddin Fayziyev,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: fayzievkhayriddin@gmal.com

Аннотация. Mazkur maqolada aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish jarayonida yuridik xizmatlarning institutsional o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada milliy va xorijiy olimlarning qarashlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va so‘nggi yillardagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida huquqiy madaniyatni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Yuridik xizmatlarning ichki va tashqi funksiyalari, ularning fuqarolar bilan huquqiy kommunikatsiyadagi roli hamda amaliy muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy targ‘ibotni takomillashtirish va raqamli huquqiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Калит сўзлар. Huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, yuridik xizmat, huquqiy targ‘ibot, konsepsiya, raqamli huquqiy xizmatlar.

Аннотация. В данной статье научно анализируется институциональная роль юридических служб в повышении правовой грамотности и правовой культуры населения. Исследование основано на взглядах отечественных и зарубежных учёных, а также на нормах Конституции Республики Узбекистан и современных правовых реформах. Рассматриваются внутренние и внешние функции юридических служб и их роль в правовом взаимодействии с населением. Также анализируются существующие проблемы в сфере правового просвещения. В заключение предлагаются научно обоснованные меры по совершенствованию правовой пропаганды и развитию цифровых юридических сервисов.

Ключевые слова. Правовая грамотность, правовая культура, юридические службы, правовое просвещение, концепция, цифровые юридические услуги.

Annotation. This article scientifically analyzes the institutional role of legal services in improving the legal literacy and legal culture of the population. The study examines national and foreign scholarly perspectives, as well as constitutional provisions and recent legal reforms in the Republic of

Uzbekistan. It highlights the internal and external functions of legal services and their role in legal communication with citizens. Practical challenges in enhancing legal awareness are also discussed. Furthermore, the article provides research-based proposals aimed at improving legal education, strengthening legal outreach, and developing digital legal service mechanisms.

Keywords. legal literacy, legal culture, legal services, legal awareness, the koncept, digital legal services.

Huquqiy davlatchilik va qonun ustuvorligi sharoitida huquqiy madaniyat hamda savodxonlik aholining huquq va majburiyatlarini anglashi, o‘z huquqini qonuniy mexanizmlar bilan himoya qila olishi, davlat qarorlarini tushunishi va ijtimoiy faollikni namoyon etishi uchun bazaviy omil hisoblanadi.

“BMTning Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiya”si ushbu masalani “umrbod jarayon” sifatida ko‘rib, davlatlarni huquqiy bilim va madaniyatni oshirishga qaratilgan choralarni kengaytirishga chorlaydi. Bunda jamiyatning har bir a’zosi ta’lim olish hamda o‘qitish orqali inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga ko‘maklashishi lozimligi ta’kidlangan[1]. Shu nuqtai nazardan, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat ma’rifiy faoliyat, balki davlat organlari, xususan, yuridik xizmatlar tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladigan mexanizmlarni talab etadi.

1997-yilda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” huquqiy madaniyatni shakllantirishni davlat siyosati sifatida belgilab, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini oshirish uchun uzluksiz tizim zarurligini ta’kidladi[1]. Keyingi bosqichda qonun hujjatlarini tarqatish, rasmiy e’lon qilish va huquqiy targ‘ibotni raqamlashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida (milliy baza va huquqiy axborot portallari, huquqiy targ‘ibot monitoringi, “proaktiv” yetkazish mexanizmi) yuridik xizmatlarning “targ‘ibottushuntirish”dagi ishtiroki normativ ravishda kengaytirildi.

Shu bilan birga, aksariyat hollarda, huquqiy savodxonlikni oshirishning “mas’uli” sifatida odatda ta’lim muassasalari yoki maxsus targ‘ibot tuzilmalari tilga olinadi, ammo tashkilotlarning yuridik xizmatlari normativ hujjat loyihalarini tayyorlashdan tortib, huquqiy axborotni yetkazish va murojaatlar bilan ishlashgacha bo‘lgan zanjirda – amalda aholiga ta’sir ko‘rsatuvchi qarorlarning qonuniyligi va tushunarliligini ta’minlaydi.

Aslida, huquqiy savodxonlikni oddiy “qonunni bilish” bilan chegaralash amaliyotda samara bermaydi. Huquqiy axborotni tushunish, uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, turli xizmatlardan foydalanish, murojaat qilish va nizoni hal etish mexanizmlarini ishga tushira olish – savodxonlikning funksional (“capability”) qirrasini tashkil etadi. Bu yondashuvning “huquqiy imkoniyatlar” (legal empowerment) haqidagi xalqaro hujjatlar bilan uyg‘un bo‘lishi

insonning o‘z huquqini amalda himoya qila olish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat esa normativ bilimlardan tashqari qonunga hurmat, qonuniylikka ichki motivatsiya, davlat qarorlarini qabul qilishga ishonch, huquqbuzarlikka murosasiz munosabat hamda huquqiy institutlarga murojaat qilishga tayyorlik kabi ijtimoiypsixologik va institutsional omillarni qamrab oladi. Milliy dasturda huquqiy madaniyat “huquqiy bilim, huquqiy e’tiqod va izchil amaliy faoliyat” majmui sifatida izohlanib, huquqiy davlat qurilishining muhim omili ekanligi ta’kidlanganligi bejiz emas.

Hattoki hozirgi vaqtda ham tez-tez uchratadiganimiz – huquqiy savodxonlikni “ommaviy tadbirlar soni” bilan o‘lchaydigan mezonlarning mavjudligi, samarani chegaralab qo‘yadi. Shu bois, auditoriya segmentatsiyasi, taqdim etilayotgan kontentning aniq hayotiy ehtiyojlarga mosligi, raqamli yechimlardan foydalanish ko‘nikmalari va natija (xulq-atvor) o‘zgarishini ko‘rsatuvchi metrikalar (Performance Metrics / Indicators) yetarlicha tizimlashmagan holatlarni ko‘ramiz.

Muammo shuki, huquqiy savodxonlikni oshirish ko‘pincha “qancha tadbir o‘tkazildi” andozasida tashkil etilsa, aholining real huquqiy ehtiyojlari va muammolariga mos, natijaga yo‘naltirilgan formatlar e’tibordan chetda qoladi. Mana shunday “eskirgan” qoliplardan tezroq qutulish va mavzuga doir tadbirlarni zamonaviy talablar asosida tashkillashtirish zaruratidan kelib chiqib, aholiga huquqiy axborotni zamonaviy usullarda, manzilli va proaktiv yetkazish, shu jumladan sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirish va “samaradorligi past” an’anaviy formatlarni keskin qisqartirish vazifalarining bir vaqtning o‘zida yuridik xizmatlar zimmasiga ham qo‘yilganligi, bu islohotlarni natijaga yo‘naltirishga albatta imkon beradi[3].

Shu nuqtai nazardan tashkilot yuridik xizmatlarining yuqoridagi jarayonlardagi ishtiroki ta’sir mexanizmini shartli ravishda ikkiga ajratib tushuntirish maqsadga muvofiq:

birinchisi – yuridik xizmatlarning normativ hujjatlar loyihalarini huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish, huquqiy kolliziya va bo‘shliqlarning oldini olish, davlat organi qarorlarini qonuniy asosga qo‘yish, shuningdek qonunchilikni targ‘ib qilish va tashkilot vebsaytiga huquqiy axborot joylashtirishda ishtirok etish tashkil qilsa;

ikkinchisida esa faoliyat natijasida huquqiy axborotning sifatli yetkazilishi orqali fuqarolarning huquqiy ishonchini oshishi, murojaatlar va nizolarni kamayishi, davlat xizmatlaridan to‘g‘ri foydalanishni yengillashishiga erishish barobarida, jamiyat a’zolarining huquqiy madaniyati va huquqiy xulqatvori barqarorlasha boradi. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmonida huquqiy madaniyatni oshirishni turli davlat organlari kesimida maxsus chora-tadbirlar bilan bog‘lagani holda, ushbu hujjat orqali xodimlar uchun bepul

huquqiy maslahat kurslari dasturlarini ishlab chiqish, “Huquqiy madaniyat oyligi” tadbirlarini tashkil qilish kabi instrumentlar joriy etildi. Mazkur jarayonlarda mahalla institutining rolini kuchaytirish maqsadida yuridik xizmat xodimlarining ham ishtiroki mustahkamlab qo‘yildi[4]. “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi nizom ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida qonun ijodkorligi, shartnomaviyhuquqiy ishlar, talabnomada’vo ishlari bilan bir qatorda xodimlarning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunmohiyatini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish vazifasi belgilab qo‘yilgan.

Nizomda yuridik xizmatga normativ hujjat loyihalarini huquqiy ekspertiza qilish, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini baholash, havola normalar maqsadga muvofiqligini tekshirish, korrupsiyaga sabab bo‘luvchi omillarning mavjud emasligi bo‘yicha xulosa tayyorlash kabi muhim vakolatlar berilgan[5]. Bu funksiyalar aholi huquqiy madaniyati darajasiga to‘g‘ridanto‘g‘ri ta’sir qiladi, chunki, huquqiy “sifat” fuqaroga tushunarli qoidalarni beradi, noaniq yoki korrupsiogen norma esa huquqiy ishonchni susaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar yuridik xizmatlarning aholi huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatiga ta’sir qiluvchi faoliyati uchun huquqiy “platforma” bo‘lib xizmat qilish orqali muhim bog‘lab turuvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Shu bois, mazkur institutning funksiyalari, vakolatlari va amaliy faoliyatini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari (keyingi o‘rinlarda-tashkilotlar yuridik xizmatlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish samaradorligi, avvalo, jamiyatdagi huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish yuridik xizmatlarning ushbu jarayondagi o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri baholash uchun zarur hisoblanadi.

Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat tushunchalari yuridik fanda o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar sifatida talqin qilinadi. X.Odilqoriyev huquqiy madaniyatni jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lish sifatida talqin etadi[6]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniq ochib beradi: huquqiy savodxonlik shaxsning bilim darajasini ifodalasa, huquqiy madaniyat esa ushbu bilimlarning real xulq-atvorda namoyon bo‘lishini anglatadi.

L. Fridman huquqiy madaniyatni jamiyat a’zolarining huquqqa bo‘lgan munosabatlari, qadriyatlari hamda huquq tizimining amal

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar majmui sifatida ko‘radi[7]. Ushbu yondashuv huquqiy madaniyatni yanada kengroq ijtimoiy hodisa sifatida ochib berish barobarida, nafaqat individual huquqiy bilim darajasini, balki jamiyatdagi umumiy huquqiy muhitni ham qamrab oladi. Shu jihatdan, huquqiy savodxonlik huquqiy madaniyatning tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi, zero fuqarolarning huquqiy bilim darajasi jamiyatdagi umumiy huquqiy madaniyat shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Aytib o‘tganimizdek, yuridik xizmatlar zimmasiga nafaqat ichki huquqiy ishlarni (ya’ni, tashkilot faoliyati bilan bog‘liq) amalga oshirish, balki aholiga huquqiy maslahat berish, qonunchilikni sharhlash va tushuntirish orqali huquqiy savodxonlikni oshirish kabi vazifalar ham yuklangan.

Qonunchilikni targ‘ib qilish ishlari yuridik xizmatlarning kengroq axborot-kommunikatsion rolini ifodalaydi, bunda normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni xodimlarga tushunarli shaklda yetkaziladi. Ayniqsa, qabul qilingan hujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini rasmiy veb-saytlar orqali e’lon qilish funksiyasi ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bilan birga, huquqiy axborotga erkin kirish imkonini yaratadi. Bu esa tashkilot faoliyatida “inson omili” bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xodimlarning murojaatlari asosida huquqiy hujjatlarni topishga ko‘maklashish va ularga tushuntirish berish funksiyasi individual darajadagi huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, amaliy muammolarni tezkor hal etish imkonini beradi. Qonunchilikdagi o‘zgarishlar, sud amaliyoti va vakolatli organlar ko‘rsatmalarini tizimli ravishda yetkazish esa tashkilotda yagona huquqiy yondashuvni shakllantiradi va normativ talablarga rioya etilishini ta’minlaydi.

Mazkur funksiyalar majmuasi yuridik xizmatlarni nafaqat huquqiy “nazorat”ni amalga oshiruvchi tuzilma, balki huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi muhim mexanizm sifatida tavsiflash imkonini beradi. Shu bilan birga, qonunchilikni targ‘ib qilish funksiyasi yuridik xizmatlarining nafaqat ichki (xodimlar bilan), balki tashqi (aholi va boshqa manfaatdor shaxslar) subyektlarning ham huquqiy savodxonligi hamda huquqiy madaniyatini oshirishi vazifasi belgilangan.

Mazkur normaning ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuridik xizmatlarning faoliyati ikki yo‘nalishda: ichki, ya’ni, tashkilot xodimlariga yo‘naltirilgan (in-house) va tashqi, ya’ni, ommaga mo‘ljallangan (public-oriented) tarzda amalga oshiriladi. Ichki yo‘nalishda yuridik xizmatlar xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish orqali tashkilot ichida qonuniylik va intizomni mustahkamlaydi. Bu yerda asosiy e’tibor normativ-huquqiy hujjatlarni tushuntirish, xodimlarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratiladi. Natijada, qarorlar qabul qilish jarayonida huquqiy xatolar kamayadi. Tashqi yo‘nalishda esa, yuridik xizmatlar qonunchilikni targ‘ib qilish, fuqarolarning murojaatlariga huquqiy tushuntirishlar berish orqali

aholining huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu faoliyat davlat organining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bilan birga, fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Shu jihatdan, ichki va tashqi yo‘nalishlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, birinchisi tashkilot ichidagi qonuniylikni ta’minlasa, ikkinchisi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Amaliyotchi olim S.Isroilovning fikricha, “jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u ta’lim, tarbiya va huquqiy targ‘ibotning uyg‘unlashgan tizimini talab etadi[8].”Ushbu yondashuvdan kelib chiqadigan bo‘lsak, huquqiy madaniyat faqat nazariy bilim emas, balki fuqarolarning kundalik hayotida huquq normalarini ongli ravishda qo‘llash qobiliyatidir. Shu nuqtayi nazardan yuridik xizmatlar davlat organlari tizimida huquqiy targ‘ibotning amaliy subyekti sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ular normativ-huquqiy hujjatlarni nafaqat rasmiy yetkazish, balki ularning mazmunini sodda va tushunarli shaklda izohlash orqali fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Muallif huquqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy e’tibor ta’lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligiga qaratilishi lozimligini ta’kidlaydi, chunki huquqiy bilimning mavjudligi hali uni amaliy qo‘llashni kafolatlamaydi. Shu bilan birga, u huquqiy ongning pastligi, huquqiy axborotga yetarli darajada ega emaslik hamda yoshlar o‘rtasida huquqiy faollikning yetishmasligi muammo sifatida qayd etadi.

Shunday holatlar jamiyatda huquqiy madaniyatning to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Ushbu muammolardan kelib chiqib, muallif huquqiy madaniyatni oshirish uchun ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiyani kuchaytirish, huquqiy targ‘ibotni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda yoshlarni huquqiy jarayonlarga faol jalb etish zarurligini ilgari suradi. Shu kabi yondashuv zamonaviy sharoitda yetarli darajada kengaytirilishi lozim, chunki huquqiy madaniyat faqat ta’lim tizimi bilan cheklanib qolmasdan, raqamli axborot muhitida ham shakllantiriladi. Shu sababli, huquqiy axborotni soddalashtirilgan shaklda raqamli platformalar orqali yetkazish, interaktiv huquqiy o‘quv tizimlarini rivojlantirish hamda yoshlar uchun amaliy huquqiy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi loyihalarni kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Professor D.Nelken “huquqiy madaniyat” tushunchasini jamiyatdagi huquqiy tizimning faqat normativ tuzilmasi emas, balki “huquqqa yo‘naltirilgan barqaror ijtimoiy xulq-atvor va munosabatlar tizimi” sifatida izohlaydi. Uning fikricha, huquqiy madaniyat qonunning “qanday ishlashi” emas, balki jamiyatda uning qanday qabul qilinishi va amalda qanday qo‘llanilishi bilan belgilanadi[9]. Shunga ko‘ra, aholi huquqiy savodxonligini oshirish jarayonida yuridik xizmatlar faqat normativ hujjatlarni yetkazuvchi emas, balki huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, sohaviy asosiy

qonunchilik hujjatida ushbu yo‘nalish tashkilot yuridik xizmatlarining bevosita funksiyasi sifatida mustahkamlab qo‘yilmagan.

Aholining huquqiy savodxonligi va madaniyatiga daxldor masalalar ko‘pincha formal darajada qolib ketishi, yuridik xizmatlarning faqat ichki idoraviy funksiyalarga yo‘naltirilishi hamda fuqarolar bilan bevosita huquqiy muloqotning yetarli emasligi kabi muammoviy masalalarga yechim sifatida yuridik xizmatlarning funksional modelini kengaytirish, ya’ni, ularni huquqiy axborot tarqatish va huquqiy tarbiya subyekti sifatida tashqi huquqiy faoliyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.Bundan tashqari, raqamli huquqiy kommunikatsiya platformalarini kengaytirish, huquqiy hujjatlarni sodda tilda sharhlash va fuqarolar uchun interaktiv huquqiy maslahat tizimlarini joriy etish huquqiy savodxonlikni real oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish jarayoni faqat ta’lim yoki targ‘ibot faoliyati bilan cheklanmay, balki davlat boshqaruvi tizimida yuridik xizmatlarning imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq kompleks jarayondir. Yuridik xizmatlar bir tomondan tashkilotlarda qonuniylikni ta’minlash, normativ-huquqiy hujjatlarning to‘g‘ri qo‘llanishini nazorat qilish va huquqiy xatolarni oldini olish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan fuqarolar va xodimlar o‘rtasida huquqiy axborotni yetkazish, tushuntirish va huquqiy ongni shakllantirish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Tahlil etilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy yondashuvlar shuni tasdiqlaydiki, huquqiy madaniyatni rivojlantirish faqat huquqiy bilimga ega bo‘lish emas, balki huquq normalarini ongli, mas’uliyatli va ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilish darajasi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid mavjud ayrim muammolar – huquqiy axborotning murakkabligi, yuridik xizmatlar faoliyatining ko‘proq ichki idoraviy doirada qolib ketishi hamda fuqarolar bilan huquqiy muloqotning yetarli darajada rivojlanmaganligi – huquqiy savodxonlikni oshirish jarayonining samaradorligini cheklamoqda.

Muammolar qatorida huquqiy savodxonlik va madaniyat darajasiga ta’sir qiluvchi vazifalar institutsional jihatdan tarqoq holda ekanligi, huquqiy axborotni tarqatish, ochiqlik, murojaatlar, ijro intizomi, targ‘ibot monitoringi turli normativ hujjatlarda mavjud bo‘lib, ularni tashkilot darajasida yuridik xizmat faoliyatiga “biriktirish” mexanizmi mavjud emasligida namoyon bo‘lsa, ko‘p hollarda huquqiy axborotning “rasmiy til”daligi ham muammo tug‘diradi. Aslida huquqiy bilimni hayotiy kompetensiyaga aylantirish uchun oddiy til, ssenariyli keyslar va amaliyotga yaqin materiallar kerak bo‘ladi. Mavzuga daxldor masalalar bo‘yicha yaqinda qabul qilingan hujjatlarda davlat organlari va tashkilotlarida Kartoteka asosida ishlarni tashkillashtirish hamda huquqiy axborotni tarqatish ishlarini muvofiqlashtirish ushbu organ va tashkilotlarning yuridik xizmatlari zimmasiga yuklatilganligini;

aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qo‘shimcha tadbirlar belgilanganligini ijobiy jihat sifatida alohida ajratib ko‘rsatish zarur[10].

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, yuridik xizmatlarning funksional salohiyatini kengaytirish va ularni bir vaqtning o‘zida jamiyat bilan bevosita huquqiy kommunikatsiya olib boruvchi subyektga aylantirish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1.Inson huquqlari sohasida ta’lim: xalqaro va milliy hujjatlar to‘plami / Mas’ul muharrir akademik A.X.Saidov.– Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2022.

2.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 466-I-son qarori bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”.: https://lex.uz/docs/249352.

3. “Huquqiy axborotni proaktiv shaklda yetkazish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.09.2025 yildagi PF-160-son Farmoni, .

4. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019-yildagi PF-5618-son Farmoni, https://lex.uz/docs/4149765.

5. “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2017-yildagi PQ-2733-son Qarori, .

6. “Davlat va huquq nazariyasi”. Darslik.X.T.Odilqoriev- Toshkent: Yuridik adabiyotlar Pablish.2022-y.-265-b.

7. Friedman L. M. Law and Society: An Introduction. – New York: W.W. Norton, 1977 .

8. Isroilov S.I., “Jamiyatda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish dolzarb vazifa”,CyberLeninka .

9. Nelken D. “Using the Concept of Legal Culture”, Berkeley Law Archive (PDF).

.

10. “2026-2027-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.04.2026-yildagi 202-son qarori, https://lex.uz/docs/8159345.